O’zbekistonda uchraydigan mashhur maqbaralar

Abdullayev Zohidjon

NamDU, Tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o’zbekistonda uchraydigan eng taniqli, o’zining o’ziga xos tarixiga va takrorlanmas go’zallikka ega maqbaralari haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Maqbara, majmua, qabrlar, madrasalar, tarixiy obidalar, ziyoratgohlar.

Kirish. Maqbarada to’qqizta qabr mavjud bo’lib, ilk qabr Muhammad Sultonga tegishli. Undan tashqari bu yerda Amir Temur, Shohruh Mirzo, Mironshoh Mirzo, Ulug’bek Mirzo, Mir Sayyid Baraka, iroqlik Shayx Sayyid Umar va Mirzo Ulug’bekning yoshlikda vafot etgan ikki o’g’li Abdulloh va Abdurahmon Mirzolarning qabrlari bor. Qabrlar bugun biz ko’radigan maqbaraning yuqori qismida emas, balki yer ostida joylashgan. Maqbaraning ziyoratxonasida mavjud qabr toshlar asl qabrlar joylashuviga qarab qo’yilgan. Asl qabrlarga kirish mumkin emas. Faqatgina maxsus delegasiyalar va hukumat ruxsati bilan kiritiladi. Maqbaraning ichki qismi ham juda go’zal naqshlar va xattotlik san’ati bezaklari ila bezatilgan. Bezatishda tilla suvi ishlatilgani jozibadorlikni yanada oshirgan. Yozuvlar, asosan, Qur’oni Karim oyatlari, hadisi sharif va hikmatli so’zlarni aks ettiradi. Samarqadning muqaddas qadamjolari orasida, shubhasiz, Qusam ibn Abbos (r.a) maqbarasi yetakchi hisoblanadi. Ushbu maqbara Shohi Zinda arxitektura majmuasining tarkib topishida markaziy rol o’ynagan. Chunki aynan shu maqbara atrofida keyinchalik ko’plab maqbaralar bino qilingan. Dastlab XI–XII asrlarda, qoraxoniylar hukmronligi davrida maqbaralar qurilgan. Qusam ibn Abbos maqbarasi ham aynan o’sha davrda bino qilingan. Ammo Samarqand shahri mo’g’ullar tomonidan egallanganidan keyin shaharning boshqa ko’plab binolari singari majmua ham jiddiy talafot ko’rgan. O’zbekiston hududida tarixiy maqbaralar va muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish hamda tabarruk zaminimizda tug’ilib voyaga yetgan va mangu orom topgan buyuk aziz avliyolarimiz xotirasiga yodgorlik majmualari barpo etilgan.

Birgina Samarqand misolida olib qarasak, u yerni “Sayqali ro’yi zamin” deb atalishi bejiz emas. Bu hududda Sherdor, Tillakori, Ulug’bek, Bibixonim madrasalari va ko’plab boshqa tarixiy binolar joylashgan. Ularning har biri takrorlanmas go’zallikka ega. Shu xususiyatlar orqali Registon maydoni butun dunyo xalqlarini o’ziga jalb etib kelmoqda. Ushbu maydonda joylashgan Tillakori madrasasi tarixiga nazar tashlasak, madrasa 1646-1660-yillar davomida qurib bitkazilgan bo’lib, qurilish ishlariga Samarqand hokimi Bahodir Yalangto’sh homiylik qilgan. Madrasa karvonsaroy asosi ustiga qurilgan. Dastlab “Yalangto’shbiy kichik madrasasi” deb nomlangan. Madrasa qurilishida yana boshqa bir maskan qurishga yetadigan miqdordagi mablag’ ishlatilgani uchun “ Tillakori” deb yuritila boshlangan. Madrasa aql bovar qilmas darajada serhashamligi bilan boshqalaridan ajrab turadi. Har bir peshtoq chuqur ravoqli qilib ishlangan va o’z navbatida bu katta mehnat va mahorat talab etgan. Yurtimizdagi ertaknamo shahar hisoblanmish Ko’hna Xivada ham ko’plab o’tmish ulug’vorligidan sado beruvchi obidalar mavjud. Ulardan biri Kalta Minordir. Minora yurtimizdagi barcha binolardan sir-sinoati, jozibasi, asl holda saqlanganligi va hashamdorligi bilan ajralib turadi.

Samarqandning qadimgi o‘rni Afrosiyobni tomosha qilgan sayyohlar uning janub tomoniga yursalar, qiyalikda joylashgan, moviy gumbazlari quyosh nurida yarqirab turgan Shohizinda ansanbmliga duch keladilar. Samarqandliklar uchun muqaddas ziyoratgohga aylangan bu ulug‘ yodgorlik uzoq-yaqindan kelgan sayyohlar uchun doimo suyukli ziyoratgohdir. Markaziy

Osiyo me’morchiligi tarixida alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan Shohizinda haqida yuz marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan ma’qulroq deb o‘ylaymiz. Qadrli sayyoh, Shohizinda zinapoyalariga ohista qadam qo‘yib bu yerdagi sukunatga quloq tuting. Bu muqaddas tuproqda Buyuk Turonning ne-ne ulug‘lari abadiy o‘yquda yotibdilar.






Ba'zi odamlar uchun maqbaralar – "muntazam" qabr toshiga ega bo'lish shunchaki ish qilmaydi. Ba'zilarni obro'-e'tibor bilan eslash kerak. Ularning oxirgi dam olish joyi buyuk maqbara bo'lishi kerak. Ularning qoldiqlarini joylashtirish uchun qurilgan butun bino - va ba'zan ularning xazinalari va keyingi hayotda foydalanish uchun narsalar. Ular qabr bo'lish uchun qurilgan bo'lishi mumkin, ammo ichkarida o'liklarni sharaflash haqida gap ketganda, ular puxta bezatilgan va eng yaxshi me'moriy durdonadir. Shubhasiz, ular bu yerda dafn etilgan shaxslarni va ularning merosini abadiy yodga olishini ta'minlaydi. Maqbarada uchta sakana mavjud, badiiy jixatdan o‘rtadagisi, ayniksa, ajralib turadi. Bu sagananing shakli Kusam ibn Abbos maqbarasidagi noyob daxmaga o‘xshaydi. Unda shikasta xat bitilgan, usti turli rang- dagi sirkor parchin va zarhal bilan koplangan. Afsus- ki, sakanaga bitilgan yozuvlarda tarixiy ma"lumotlar yo‘q. Shu sababli maqbaraning kimniki ekani haligacha aniklanmagan. Maqbara hozir mustaxkamlanib, ko‘rish uchun ochib kuyilgan. 2004 — 2005 yillarda ta’mirlanib, ustiga alohida gumbaz kurilgan.

Mir Arab madrasasi — Buxoro madrasasi. Madrasaning qurilishi o‘zbek hukmdori Ubaydullaxon va uning piri Mir Arab nomlari bilan bog‘liq. O‘quv muddati 4 yil

O‘quv yurti kunduzgi bo‘limiga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan o‘rta va to‘liqsiz o‘rta ma’lumotli kishilar qabul qilinadi. Diniy fanlar hamda umumta’lim fanlari o‘qitiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o‘rgatiladi. Darslar o‘zbek va arab tillarida olib boriladi. Mir Arabning asl ismi Sayyid Abdulloh bo‘lib, amir 22 yoshida Samarqandga kelib Xoja Ahrorga shogird tushgan. Turkistonning Sabronida (Savronida) 2 koriz (yer osti arig‘i) qazdirgan, suv chiqargan, qal’a bino etib, Shofirkon, Vobkent, G‘ijduvonda ko‘p joylarni obod qilgan (hozirda Shofirkonda Mir Arab qal’asi saqlanib qolgan). U naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmagan, 1536-yil boshida Mir Arab vafot etgan va uning vasiyatiga ko‘ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan.

Nodir devonbegi madrasasi (asl nomi: Nadr devonbegi madrasasi) — Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) qurdirgan (1622—1623). Nodir Devonbegi madrasasi Buxoroning eski shahar qismida joylashgan. Labi-hovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Hozirgi kunda madrasa O‘zbekiston moddiy va madaniy me’rosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan.





(Mir Arab madrasasi) (Nodir devonbegi madrasasi)

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, qachonki inson o’zligini, azaliy qadriyat va an’analarini unutar yoki ularga ularga biroz bo’lsa ham befarqlik bilan qarar ekan ma’naviy tahdidlarga duch keladi va unga yengiladi. Shu sababdan ham yurtimizda bu kabi tarixiy obidalar doimo yosh avlodga

biz kim ekanligimiz, kimning avlodlariligimiz va albatta kelajakda nimalarga erisha olishimiz mumkinligini eslatib turuvchi qo'ng'iroq singari bong urib turaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://meros.uz/object/shohi-zinda-maqbarasi
2. https://adu.uz/uz/news/article/1026
3. https://www.yoair.com/uz/blog/the-most-outstanding-and-historical-mausoleums-and-tombs-worldwide/
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/XIV_asrda_qurilma_noma%E2%80%99lum_maqbaralar
5. https://uzreport.news/society/o-zbekistondagi-ziyoratgohlar-ro-yxati-yagona-milliy-turistik-axborot-portaliga-joylashtir